



MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK HAYOTI VA IJODI

S.U.Patxullayev

Dotsent

Sh.Sh.Farmonov

Talaba

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15195385>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 11- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tomonidan yozilgan tarixiy roman, oybekning badiiy-estetik qarashlari, sotsialistik realizm, o'zbek adabiy tanqidchiligi, munaqqid tahlili, davrlashtirish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning asari yuzasidan mulohazalar ilmiy nazariy tahlil qilingan.

Shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905- yil 10-yanvar kuni Toshkentda hunarmand-bo'zchi oilasida tavallud topgan.

Dastlab Oqmasjid mahallasidagi eski maktabda (1911-1917), so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov tashkil etgan „Namuna“ maktabida (1918-1921) boshlang'ich ma'lumot olgan. Shundan keyin Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikum-internatida tahsil olgach (1921-1925), Toshkent unversitetining ijtimoiy fanlar fakultetida (1925-1927), Leningrad xalq xo'jaligi institutida (1927-1929) o'qiydi va og'ir xastalikka chalingani sababli yana Toshkentga qaytib, Toshkent unversitetida o'qishni tugatadi (1930). Oybek mehnat faoliyatini talabalik yillaridan boshlab, o'rta maktab, texnikum va ishchilar fakultetlarida (1925-1927), Xalq xo'jaligi, Qishloq xo'jalik va Pedagogika institutlarida til va adabiyot fanlaridan dars beradi, Toshkent institutining iqtisod fakultetida esa assistent sifatida xizmat qiladi (1930-1935). Ayni paytda Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot instituti (1933) va Fanlar komiteti huzuridagi Til va adabiyot institutida (1934-1937) ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. 1937-yilda Sovet davlati qatag'on siyosatining avj olishi Oybekning „millatchi“ va „milliy ittifoqdchilar“ga xayrixoh kishi sifatida ishdan haydalishi hamda tazyiqqa uchrashiga sababchi bo'ladi. Kambag'al oiladan chiqqanligi va internatda tarbiyalanganligi tufayli qatag'ondan omon qolgan Oybek 1938-yil oxiridagina O'zbekiston o'quv-pedagogika nashriyotiga tarjimon-muharrir sifatida ishga qabul qilinadi.

Adabiyotshunoslik, tanqidchilik, badiiy ijod taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlar orasida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning o'rni alohida. Uning chuqur mushohada va tahlilga asoslangan ilmiy ishlari bugungi kunga qadar adabiyotimiz rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Oybekning ilmiy ishlari va adabiy-tanqidiy maqolalari xuddi badiiy asardek ehtiyoj farzandlari, zarurat

xosilasi sifatida maydonga keldi. Oybek xalq tili boyligini ruhini mukammal bilgan va ulardan ustalik bilan foydalana oladigan san'atkor bo'lgan. Yozuvchini niyatini, nimaga urg'u berayotganini anglatishda ayrim so'zlar alohida funktsiya o'tashi tabiiy.

Bunday so'zlar ijobiy qahramon nutqida ham, salbiy qahramon nutqida ham, go'zallikni, xunuklikni xarakterlashda ham qo'llaniladi va ma'noni yorqin namoyon etishga, tasvirni ixchamlashtirishga katta imkoniyat beradi. Oybek xalq tilidagi mavjud so'zlarni mohirona tanlaydi, saralaydi, nutq davrasida alohida yuk ko'taruvchi elementni topib ishlatadi.

"Quyosh qoraymas" O'zbekiston xalq yozuvchisi, akademik Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ijodiga mansub 1943-1957-yillarda yozilgan roman. Adib „Quyosh qoraymas“ romanida Bektemir ismli askar va uning ikki do'sti misolida SSSRning tayyorgarliksiz urushga kirgani va rahbarlarning qo'pol xatolari tufayli turli xalqlardan bo'lgan millionlab kishilar, shu jumladan, o'zbek jangchilarining „to'p yemi“ bo'lgani haqidagi haqiqatni badiiy mujassamlantirib bergan. Romanning ilk variantidan parchalar „Qizil O'zbekiston“ gazetasida va „Sharq yulduzi“ jurnalida e'lon qilib borilgan. Asar 1971-yilda G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. 1977-yilda esa O'qituvchi nashriyoti tomonidan roman 120 000 nusxada bosib chiqarilgan. So'nggi marotaba 2020-2021-yillarda Yangi Asr Avlodi nashriyotida nashr etilgan.

"Oltin vodiyan shabadalar" O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek qalamiga mansub roman. Ilk marotaba Qizil gazetasining 1949-yil 6-noyabrdagi sonida romandan parchalar e'lon qilingan. To'liq tarzda esa 1959-yilda Oybekning to'rt tomlik Tanlangan asarlari bilan birga nashr etilgan. Roman 1971-yil G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan 528 betli qattiq muqovada, 1976-yilda Fan nashriyotida 544 betli qattiq muqovada 5000 nusxada nashr etilgan. So'nggi marotaba 2019-yil Yangi Asr Avlodi nashriyotida lotin yozuvida chop etildi. Oltin vodiyan shabadalar yangi davr adabiyotida katta hajmdagi roman bo'lib, unda o'zbek xalqining yaqin o'tmishi, turmush tarzi, har qanday og'ir vaziyatda ham o'z irodasini ko'rsata oluvchi xalq ekanligi va o'zbek millatiga mansub mehnatkash kishilarning betakror fazilatlarini tasvirlangan.

Navoiy romani 1942-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tomonidan yozilgan tarixiy roman. Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Roman turli qarama-qarshiliklar va muhokamalardan so'ng ilk marotaba 1944-yilda nashr etilgan.

Navoiy- Alisher Navoiy, shoir va mutaffakir olim, asardagi barcha personajlar unga bog'langan.

Nizomulmulk, Majididdin, Mo'min Mirzo, Arslonqul, Sultonmurod, Dildor, To'g'onbek, Shayx Bahlul, Valibek, Xo'ja Afzal, Darveshali, Zayniddin, Alovuddin Mahshadiy, Xo'ja Abdulla Marvoriy

Husayn Boyqaro Xuroson hukumdori,

Badiuzzamon- Boyqaroning o'g'li (Navoiy unga qarata „Sizlarda Iskandarning soyasi ham yo'q. Sizlar uning navkarlariga xam arzimaysizlar deya nadomat qilgan)

Asarlarni tahlil qilishda biografik metod ham mavjud Bu metodga fransuz adabiyotshunosi va adibi Charl Byor asos solgan deb e'tirof etiladi. Ushbu metodda adib hayotiga daxldor qismlar aniqlanadi va tahlil qilinadi Ko'rinadiki, bu metoddan foydalanish uchun, albatta, asar muallifi hayotidan xabardor bo'lishimiz kerak. Buning uchun biz biografik asarlarga murojaat qilamiz. O'zbek adabiyotshunosligida esdalik, biografik asarlar mumtoz

adabiyotda ham yozilgan bo'lsa-da, XX asrga kelib rivojlandi va uning yuksak namunalarini A.Qahhor Ayniy, Oybek kabi o'zbek so'z san'atkorlari yaratgan edi Bular orasida Oybekning "Bolalik" ("Bolalik xotiralarim "biografik qissasi mashhurdir. Ushbu asarda, Oybekning Bolalik yillari ochiq-oydin haqqoniy, badiiy yaqinda go'zal tasvirlangan.

"Bola boshidan" deganlaridek Oybek ham juda yosh, besh-olti yoshidan opasi Karomat bilan birgalikda Fuzuliy g'azallarini yod olgan ularni qanchalik yoqtirishini "sevaman so'zi bilan ifodalagan.U"Men Fuzuliyi sevaman "deydi Bu orqali adib o'sha paytdanoq adabiyotini shunchaki yoqtirishi yoki moyilligi bo'lganini emas,chin yuragi bilan unga oshno bo'lganini anglaymiz. Musanning sho'x, shaddod,bir muncha qaysar blga ini (buni o'qituvchisi yog'li non,pul, palovdan hech bo'lmasa birini olib bormasa qo'ymasligidan sezish mumkin, yana boshqa ko'plab o'rinlarda) bilib olamiz. Shunga qaramay u bolalik chog'idanoq san'atga mehr qo'yganini ko'rish mumkin.

Masalan,uning asarida tasvirlashicha o'sha davrda Ramazon oyida erta tongda bir tomga chiqib nog'ora chalingan, Musa esa do'stlari bilan tomosha qilgan va nog'oraga ishtiyoqi ochib onasidan 40tiyn(2 tanga) undirib chaqqon,gapga chechan uddaburon do'sti Turg'un bilan borib kichkina nog'ora olib keladi, shuningdek o'sha davrda (Musa katta bo'lib qolgan paytlar Toshkent jadidchilik markazi bo'lgani ma'lum va ular turli joylarda va'zlar o'qib targ'ibot qilib borganlar. Bunday va'zlardan biriga Musa do'sti Turg'un bilan boradi Turg'un bunday narsalarga toqat qilolmas,qizimas Musani o'yinga yo boshqa ishga undaydi In Musa shunchalar berilib va'zga quloq soladiki Turg'unga e'tibor ham bermaydi. Va'zxonning ba'zi gaplariga tushunmasa ham mazmunini anglashga harakat qiladi.bundan tashqari Musa kichkinaligidan boo-boo area,cho'l-biyobonlarga tog'larga chiqishni yaxshi ko'rar uzoq safarlar ham uning joni dili edi. Agarda otasi Toshmuhammad aka ularni Yangiobodga chaqirib qolsa, o'zida yo'q sevinar tezroq borishni mushtoq bo'lib kutardi. Otasi bilan tog'ga dam olgani ketayotganda ham juda quvongan afsuski,otdan yiqilib oyog'i lat yegani tufayli bu baxtga erishilmagan edi. Shunday bo'lsa-da otasi o'g'lida ikodkor qalbi borligini his qilib bir dasta gul olib keladi.

Uning zehni tez.aqli ham joyida edi. Maktabga endi borgan kundan boshlab alifboni haftiyakni ham sharros aytib berishi, yoshligida katta yoshli yaxshi bilimli o'quvchilarga ularga o'rgatosh aytilganda norozilik qilganligi, ammo vaqt o'tib o'zi ham shu darajaga, ya'ni yosh bolalarga o'rgatishini so'rganida mamnuniyat bilan qabul qilib,chin ko'ngildan bajarishi uning naqadar ochiq-oydin, aqlli, ustoziga bo'lgan hurmati ko'rinib turadi. Shu bilan birga biz uni juda aqlli orthosis deb tasavvur eta olmaymiz. Chunki o'zi tasvirlaganidek, boshqa bolalar bilan birgalikda,o'qituvchi chiqishi bilan to'polon qilib hammayoqni changitib o'ynab ketishi uning bir muncha sho'x ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Oybek qiziquvchan va ziyrak bo'lganini ham uning qayerdadir biror voqea yoki janjal bo'layotganini eshitsa,o'zidek qiziquvchan do'sti Turg'un bilan yetib borishi va onasi buvisi va opasiga barchasini oqizmaytomizmay aytib berishidan bilish mumkin.

Bu asar davomidagi bir voqea, ya'ni bobosining oldiga bir kampirning kelib arz dod qilishi o'sha davrning jamiyatning qanday ahvolda ekanligini ochib beradi. Buni G'afur G'ulomning "Shum bola qissasida ham ko'rishimiz mumkin

Asar oxirida esa Musa Xadradagi yangi maktabda o'qishni boshlaganini uning bolalik davri yakuniga yetganidan dalolat beradi. Adib o'zining bolaligini shunday xotirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. Fan, 1967. – 136 b.
2. Sadullo Quronov. "O'tmishdan ertaklar" qissasining yuragi. ziyo.com
3. Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. «Sharq» nashriyoti. Toshkent— 2005.
4. Zarifa Saidnosirova . Oybegim mening.«Sharq» nashriyoti. Toshkent— 2005.
5. Naim Karimov. Oybek va Zarifa. "Yangi asr avlodi". Toshkent— 2005.
6. Oybek. Bolalik xotiralarim. "Yangi asr avlodi". Toshkent— 2019.

